



LINGVOKOGNITIV TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASI

Jumayeva Marjona Erkinovna

BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20079006>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-may 2026 yil
Ma'qullandi: 5-may 2026 yil
Nashr qilindi: 8-may 2026 yil

KEY WORDS

antroposentrik tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, konsept, mentallik, lisoniy ifoda, tushuncha, psixolingvistika, frazeologik maydon.

ABSTRACT

Konsept tushunchasi antroposentrik tilshunoslik doirasida o'rganiladigan, mazkur tilshunoslik yo'nalishlarining barchasiga birdek daxl qiluvchi tushuncha hisoblanadi. Mazkur maqolada konsept tushunchasining lingvokulturologiya hamda kognitiv tilshunoslikda o'rganilishi, ularning o'zaro farqlari hamda o'xshash xususiyatlari ochib berilgan.

XX asrda antroposentrik tilshunoslikning shakllanishi hamda rivojlanishi bilan uning tarkibiy sohalari ham alohidalashib bordi. Xususan, konsept atamasi ham psixolingvistika, ham kognitiv tilshunoslik, ham lingvokulturologiya uchun xarakterli bo'lgan, ayni paytda o'rganilish jihatidan mazmunan farq qiladigan tushunchaga aylandi.

D.Xudoyberganova **konsept** terminiga quyidagicha yondashadi:

Kognitiv tilshunoslikda: inson ongining mental va ruhiy imkoniyatlari, uning bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimi birligi.

Lingvokulturologiyada: Mentallik xususiyatiga va lisoniy ifodaga ega bo'lgan, etnomadaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligi.

Psixolingvistikada: Insonning bilish va muloqot faoliyatida yuzaga keladigan, uning ruhiy qonuniyatlariga bo'ysinuvchi harakatchan pertseptiv – ognitiv –affektiv tuzilma [8].

Ba'zi tadqiqotlarda konsept terminini «ma'no» termini bilan ma'nodosh hisoblab tushuncha mazmunini ifodalashi haqida qayd etishadi. «Tushuncha» terminining sinonimi «mazmun» terminidir, ya'ni so'zning ma'nosi bu mazkur til me'yorlariga muvofiq tarzda predmet yoki predmetlar ma'nosini shakllantirishidir [7].

A.V.Grisenkoning "Frazeologik maydonda ikkilanish tushunchasiga kirish" nomli tadqiqotida konsept terminiga kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilib, zamonaviy rus tili materiallariga tayanilgan. Xususan, ishda frazeologik birliklarni tushunishdagi konseptual xatolar tahlilga tortilib, mazkur soha doirasidagi ilmlar sinflarga ajratilgan holda tushuntirib o'tilgan. Nutq sohibi tomonidan nima aytilmoqchi edi va u qaysi birlik orqali voqelanganligi, tanlangan frazeologik birlikning matn maazmuniga mos tushish darajasi o'rganilgan. O'rganilishi jihatdan esa analiz va sintez qilish usuli bilan olingan materiallar tekshirilgan[3].

Tafakkur birliklari bo'lgan tushuncha va konsept kognitiv tilshunoslik tarkibida ham tahlil etiladigan hamda bir-biridan ayrim xususiyliklar bilan farq qiladigan birliklardan biridir. Har ikkala atamaning dastlabki bosqichida denotatsiyaga o'tish bosqichi - **obraz**

yaratilishi birlamchi o'rinda turadi. Tushuncha va hukmning hosil bo'lishi aqliy faoliyatning turli bosqichlariga xosdir. Aynan shu o'rinda kognitiv tilshunoslik psixolingvistika yo'nalishi bilan kesishadi.

Konsept esa tushunchadan umumiy bo'lgan tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi hisoblanadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi [5].

Tilshunoslikda ko'plab ilmiy ishlar konsept hamda uning tadqiqiga bag'ishlangan. **Konsept** so'zi lotincha conceptus "tushuncha" ma'nosini anglatganda, tushunchaga aynan teng emas, balki bir mavzu doirasida shakllangan tushunchalar qamrovi sifat bosqichiga o'tgandan keyingina konseptlashadi. Konseptning tabiati haqidagi ilk fikrlar S.A.Askoldovning 1928-yilgi "Konsept va so'z" maqolasida uchraydi [1]. Rus olimasi D.A.Arutyunova ham konseptni til materiallari asosida izchil o'rganadi[2].


D.D.Xayrullinaning "Zamonaviy tadqiqotlarda "konsept", "tushuncha", "ma'no" atamalarining o'zaro aloqasi va bog'liqligi" maqolasida birliklar farqlaniladi va ular orasidagi aloqadorlik bir qancha misollar yordamida tushuntiriladi. Dastlabki bosqichda tushuncha va so'zning tavsifi keltirilib, har qanday konsept so'z orqali ifodalanishi, konsept tasviri so'zlar orqali chizilishi aytib o'tiladi. Ikkinchi bosqichda esa leksik ma'no va konseptning ierarxik munosabatlari keltirilib, leksik ma'no semantik makonning birligi, konsept esa umumiy konseptosferaning tarkibiy qismi kanligi ta'kidlangan. Leksik ma'nodan farqli ravishda konseptning ro'yobga chiqishida so'zlovchining psixologik va kulturologik qiyofasi namoyon bo'lishi aytib o'tilgan. Uchinchi bosqichda esa ma'no, tushuncha, konsept birliklari tahlilga tortilib, tushunchaning shakllanishida obyekt va tafakkur, ma'noning shakllanishida esa obyekt, tafakkur va tilning tuzilishi katta rol o'ynashi aytib o'tilgan. Tushuncha butun insoniyat uchun umumiy, ma'no esa milliy ekanligi, tushuncha bitta bo'lsa ham ma'no bir nechta bo'lishi haqida ta'kidlangan[6].


Quyidagi jadvalda lingvokulturologiya hamda kognitiv tilshunoslik, ularda konsept tushunchasi

Lingvokulturologik konsept	Kognitiv konsept
XX asrning 90-yillarida lingvokulturologiya shakllandi.	XX asrning 70- yillarida kognitiv tilshunoslik paydo bo'ldi. Uning tug'ilish sanasini 1956-yilning 11-sentabri deb qayd etadilar.
Lingvokulturologiya lotincha, lingua- til, cultus - hurmat qilish, ta'zim qilish, yunoncha, ilm-fan degan ma'noni anglatadi.	Kognitiv tilshunoslik atamasi <i>cognitive-</i> bilishga oid so'zi bilan aloqador.
Lingvokulturologiyaning obyekti til va madaniyat hisoblanadi.	Konsept – tafakkur (mental) xarakterga ega bo'lib, u turli ko'rinishdagi ilmlar umumashmasidir.
Lingvokulturologiya birliklari muqobilsiz leksika va lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning paremiologik fondi, tilning frazeologik fondi, o'xshatishlar, ramz, streotiplar, tilning metaforalari va obrazlari, tillarning stilistik qatlami, nutq etiketi.	Kognitiv tilshunoslikning asosiy birliklari bilish, tushuncha, tafakkur, konsept atamalari bilan bog'liq.
Lingvokulturologiyada konsept madaniyat elementarining qay darajada ishtirok etishi nuqtayi nazardan o'rganiladi.	Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi hisoblanadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan

	boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi.
Lingvokulturologiya ma'lum jamoa nima qilayotganligini fikrlayotganligini(o'ylayotganligini) anglatadi.	Kognitiv tilshunoslik qanday fikrlayotganimizni anglatadi
Konseptosfera – muayyan madaniyatning asosiy konseptlari yig'indisini o'rganadi.	N.Yu.Shvedova “konsept tushuncha ekanligini bu tushuncha ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildiziga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini ta'kidlagan.

Lingvokulturologiya hamda kognitiv tilshunoslik bir-biri bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Lingvokulturologiyaning asosida o'xshatish, ramz va stereotiplar tursa, kognitiv lingvistika insonning hayoti davomida to'plagan ilmiga, bilimiga tayanadi. Inson egallagan bilimning tarkibiy qismi madaniyat bo'lishi bilan har ikkala soha yaqinlikni tashkil etadi. V.A.Maslova konsept markazida qadrilik prinsipi turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotishini ham o'z fikrlarida bayon qiladi [4]. O'zbek tilshunosligida ham “konsept” tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh.Safarov “moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet- hodisalar haqida tushunchaning tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi”ni ta'kidlaydi [5].





Umumiy keltirilgan nazariyalardan kelib chiqib konsept aslida til, inson, tafakkur uchburchagidan iborat ekanligini, madaniyat esa unga “libos” sifatida shakllanganligini bilib olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аскольдов, С. А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М. : Academia, 1997. 280 с.
2. Арутюнова Н.Д. Логический анализ языка: Культурные концепты. – М.: Наука, 1991. 405 с,
3. Гриценко А.В. Фразеосемантическое поле *Введение в заблуждение: Когнитивный аспект* (на материале современного русского языка). Автореферат. Барнаул – 2009. -190 с.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология.—М.:»академия», 2001. 208 с.
5. Сафаров Ш. *Когнитив тилшунослик*. “Сангзор” нашриёти. 2006.– 92 б.
6. Хайруллина Д.Д.. Соотношение и взаимосвязь терминов «концепт», «понятие», «значение» в современных исследованиях. Набережночелнинский институт Казанского федерального университета. Источник Филологические науки. Вопросы теории и практики Тамбов: Грамота, 2017. № 12(78)
7. Ulug'murodova S.A. Kognitiv tilshunoslikda konsept va tushunchaning farqli tomonlari. Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. ISSN: 2181-1776.
8. Худойберганова D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – T.:Turon zamin ziyo, 2015. B. -25.